Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 6 2026

O‘QUVCHILAR BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARIGA QO‘YILGAN TALABLAR VA ULARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Abdimurotov Oybek Uralovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada geografiya ta’limida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar hamda ularni shakllantirish metodikasi yoritilgan. Unda bilim, ko‘nikma va malaka tushunchalarining mazmuni, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, geografik bilimlarning empirik, nazariy, amaliy va axloqiy turlari, ularni o‘quvchilarda shakllantirish bosqichlari ko‘rsatib berilgan. Maqolada geografik xaritalar, statistik ma’lumotlar, kuzatish, tahlil, amaliy mashqlar va geografik axborot tizimlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda tabiiy, iqtisodiy, kartografik hamda ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot mazmuni geografiya ta’limi samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning fazoviy tasavvuri, analitik fikrlashi va amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Annotation. This article discusses the requirements for students’ knowledge, skills and competencies in geography education, as well as the methodology for their formation. The paper analyzes the essence of knowledge, skills and competencies, their interrelation and their role in the educational process. Special attention is paid to the types of geographical knowledge, including empirical, theoretical, practical and ethical knowledge, and to the stages of their development among learners. The article also highlights the importance of maps, statistical data, observation, analysis, practical exercises and geographic information systems in developing students’ natural, economic, cartographic and ecological skills. The content of the study is aimed at improving the effectiveness of geography teaching, developing students’ spatial imagination, analytical thinking and readiness to apply geographical knowledge in real-life situations.

Taraqqiyot spektri

Аннотация. В данной статье рассматриваются требования к знаниям, умениям и навыкам учащихся в процессе обучения географии, а также методика их формирования. Раскрывается содержание понятий «знание», «умение» и «навык», анализируется их взаимосвязь и значение в образовательном процессе. Особое внимание уделяется видам географических знаний, в частности эмпирическим, теоретическим, практическим и нравственным знаниям, а также этапам их формирования у учащихся. В статье подчёркивается роль географических карт, статистических данных, наблюдения, анализа, практических заданий и геоинформационных систем в развитии природных, экономических, картографических и экологических умений. Материал статьи направлен на повышение эффективности преподавания географии, развитие пространственного представления, аналитического мышления и готовности учащихся применять географические знания на практике.

Kalit so‘zlar: geografiya ta’limi, bilim, ko‘nikma, malaka, metodika, xarita, geografik tahlil, amaliy mashq, kartografik ko‘nikma, ekologik ta’lim.

Keywords: geography education, knowledge, skills, competence, methodology, map, geographical analysis, practical exercises, cartographic skills, ecological education.

Ключевые слова: географическое образование, знания, умения, навыки, методика, карта, географический анализ, практические задания, картографические умения, экологическое образование.

Kirish. Geografiya ta’limi o‘quvchilarda tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash, geografik hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur fan orqali o‘quvchilar Yer yuzasining tabiiy xususiyatlari, aholi joylashuvi, xo‘jalik faoliyati, ekologik muammolar hamda hududiy tafovutlar haqida zarur bilimlarga ega bo‘ladilar. Shu bois geografiya ta’limida faqat nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish emas,

Taraqqiyot spektri

balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish, xaritalar bilan ishlash, kuzatish, taqqoslash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini izchil shakllantirish geografiya o‘qitish metodikasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bilim o‘quvchining geografik tushunchalarni egallashini ta’minlasa, ko‘nikma ushbu bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llashga, malaka esa ularni murakkab va notanish sharoitlarda samarali tatbiq etishga imkon beradi. Shuning uchun geografiya darslarida xarita, atlas, statistik ma’lumotlar, amaliy mashqlar, kuzatish va geografik axborot tizimlaridan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, fazoviy tasavvuri va amaliy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim metodik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism. Geografiya ta'limi insonning dunyoqarashini kengaytiradigan, tabiat va jamiyatni o‘rganishga qaratilgan ilmiy soha bo‘lib, unda bilim, ko‘nikma va malakaning ahamiyati juda katta.

Bilim — o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

Ko‘nikma — o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish;

Malaka — o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

Ular bir-birini to‘ldiradigan tushunchalar bo‘lib, bir-biridan farq qilsada, o‘zaro bog‘liqdir. Har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

Bilim — bu insonning ob'ektiv dunyo haqidagi tushunchalari, tajribasi va o‘rganish orqali egallagan ma'lumotlaridir. U nazariy xarakterga ega bo‘lib, asosan o‘rganish, kitob o‘qish, muloqot va ilmiy izlanishlar orqali shakllanadi. Bilimlar ijtimoiy, tabiiy va texnik sohalarda bo‘lishi mumkin va ular odamga dunyoni tushunishda yordam beradi. Geografiya fanida bilimlar tabiiy va ijtimoiy jarayonlar, geografik ob'ektlar, ularning xususiyatlari, joylashuvi, o‘zaro bog‘liqligi va ularni o‘zgartirish jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan. Geografiyaning turli bo‘limlari va metodlari orqali olinadigan bilimlar ham turli xil bo‘ladi. Quyida geografiya fanidan olinadigan bilim turlari va ularning xususiyatlarini keltirib o‘tamiz.

Taraqqiyot spektri

Tezkor bilim (empirik bilim) — odamning bevosita tajribasi va kuzatishlari asosida hosil bo‘ladi. Bu bilim turiga odamlar atrof-muhitni, tabiatni va ijtimoiy hodisalarni kuzatib o‘rganish orqali ega bo‘lishadi. Geografik bilimlarning asosiy manbai tabiatni bevosita kuzatish va unga ta'sir etuvchi jarayonlarni o‘rganishdan iboratdir. Odamlar o‘z tajribalariga asoslanib, yer yuzidagi geologik tuzilmalar, iqlim o‘zgarishlari, o‘simlik va hayvonot dunyosining tarqalishi kabi ko‘plab geografik hodisalarni o‘rganadilar. Masalan, iqlimshunoslar atmosferadagi harorat, namlik va shamolning ta'sirini o‘lchash orqali iqlim turlarini aniqlaydilar. Bunday bilimlar zamonaviy ilmiy tajribalar orqali yakkalanib va tizimlashtirilib, geografik xaritalar va meteorologik prognozlarni yaratishda foydalaniladi. Shuningdek, geografiya fanidagi empirik bilimlar geodeziya, topografiya va kartografiya kabi sohalarda ham muhim ahamiyatga ega, chunki bu sohalarda yer yuzasining tuzilishi va o‘lchovlari aniq tajribalar va kuzatishlarga asoslanadi.

Nazariy bilim (ilmiy nazariyalar) — mantiqiy fikrlash, tajribalarni umumlashtirish va abstrakt konseptlarni yaratish orqali shakllanadi. Bunday bilim turida odamlar o‘z tajribalarini ilmiy asosda tahlil qilib, yangi nazariyalar va qonunlarni ishlab chiqadilar. Nazariy bilimlar tabiiy va ijtimoiy-geografik jarayonlarning mantiqiy tahlili va umumlashtirilishiga asoslanadi. Geografiyada ilmiy nazariyalar muayyan hududlarda tabiiy resurslar qanday taqsimlanganini, shuningdek, inson faoliyatining tabiiy muhitga qanday ta'sir ko‘rsatishini tushuntirishga yordam beradi. Misol sifatida, tabaqalanish nazariyasini keltirish mumkin. Bu nazariya yer yuzasining tabaqalanish jarayonlarini tushuntiradi va geologik qatlamlarning shakllanishi, ularning harakati va evolyutsiyasini o‘rganadi. Shuningdek, iqlimshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan Global iqlim o‘zgarishi nazariyasi ham nazariy bilimlarga misol bo‘ladi, bunda iqlim o‘zgarishining tabiiy va inson faoliyatidan kelib chiqqan sabablarini tahlil qilishga asoslaniladi.

Instinktiv bilim (tajribaviy bilim) — odamlarning tug‘ma, tabiiy instinktlari asosida hosil bo‘ladi. Bu bilimlar insonlarning hayotiy muhitda omon qolish uchun zarur bo‘lgan reaktsiyalarni aniqlashga yordam beradi. Bu bilimlar odatda insonlarning atrofdagi muhitga nisbatan bevosita aloqalarini ifodalaydi. Geografiyada instinktiv bilim insonlarning tabiiy

Taraqqiyot spektri

resurslarni qanday ishlatishlarini va bu jarayondagi ijtimoiy va ekologik muvozanatni qanday saqlashlari zarurligini tushunishga yordam beradi. Masalan, qishloq xo‘jaligi geografiyasida tabiiy sharoitlarga mos ravishda dehqonlar o‘z yerlarini qanday ishlatishlari, ekinlarni qaysi hududlarda o‘stirishlari kerakligini instinktiv ravishda biladilar. Bu, albatta, milliy va mahalliy tajribalarga asoslangan bilimlardan iborat bo‘lib, ko‘pincha ilmiy metodlar bilan bog‘lanmagan bo‘lishi mumkin, ammo muayyan hududlarda odamlar bu bilimni o‘zining turmush tarzida qo‘llaydi.

Amaliy bilim (pragmatik bilim) — bunda odamlar qandaydir muammoni yechish uchun o‘rgangan va sinovdan o‘tkazgan ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Amaliy bilimlar geografiyani kundalik hayotda qo‘llashni o‘z ichiga oladi va insonlar tabiiy resurslardan qanday foydalanishni, ularni qanday samarali boshqarishni o‘rganadilar. Masalan, barqaror rivojlanish yoki ekologik barqarorlik tushunchalari amaliy bilimlarga misol bo‘lib, ular atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni tejash va global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda qo‘llaniladi. Shuningdek, tabiiy ofatlar (yong‘inlar, zilzilalar, toshqinlar)ning oldini olish va ularning salbiy ta'sirlarini kamaytirish bo‘yicha amaliy bilimlar geografiya fanining muhim sohalaridan biridir.

Axloqiy bilim — insonning to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshi va yomon, adolatli va noadolatli narsalar haqida tushunchalarini o‘z ichiga oladi. Odamlar axloqiy bilimlarni jamiyatda qanday qilib axloqiy hayot kechirish haqida fikr yuritishda qo‘llaydilar. Geografiyada axloqiy bilim tabiiy va ijtimoiy resurslarning teng va adolatli taqsimlanishini ta'minlash, insonlarning ekologik xatti-harakatlarini boshqarish va ularga to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsatishni anglatadi. Masalan, ekologik adolat tushunchasi geografiyada odamlarning tabiat bilan bo‘lgan munosabatini tushuntiradi. Bu masala ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlar va ularni tejash zarurati o‘rtasidagi muvozanatni saqlashda juda dolzarb ahamiyatga ega. Geografiya fani bu muammolarni ilmiy asosda tahlil qilib, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda ko‘maklashadi.

Geografiya o‘qitilishi jarayonida talabalar butun dunyo haqidagi keng qamrovli bilimlarni egallashadi:

Taraqqiyot spektri

Tabiiy geografik bilimlar (iqlim, tog‘lar, daryolar, o‘simliklar va hayvonot dunyosi, resurslar);

Ijtimoiy geografik bilimlar (aholi, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, turizm);

Kartografik bilimlari (globuslar, xaritalar, atlaslar, diagrammalar, xarita tuzish usullari);

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish.

Bu bilimlar nafaqat nazariy, balki amaliyotda qo‘llanilishi kerak. Geografiya fani nafaqat yerning qanday shakllanganini, aholi qayerda yashashini va qanday resurslarga ega ekanligini tushuntirish bilan cheklanmaydi, balki bu bilimlarni kundalik hayotda, tadqiqotlarda, siyosat va iqtisodiyotda qanday qo‘llashni ham o‘rgatadi.

Ko‘nikma — bu bilimlarni amaliy faoliyatda, tanish vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatidir. Ko‘nikmalar, asosan, mashq qilish orqali rivojlanadi. Inson, o‘z bilimlarini ko‘p marta takrorlash va praktika qilish orqali ularga ko‘nikmalar hosil qiladi. Ko‘nikma nafaqat amaliy ishni bilish, balki uni samarali va tez bajarish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Geografiya ta'limida o‘quvchilar geografik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va turli vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ko‘nikmalar quyidagi sohalarda yuzaga keladi:

Kartografiya va xarita tuzish: Talabalar xaritalar bilan ishlashni o‘rganadilar. Bu jarayon nafaqat xarita o‘qish, balki unga asoslangan tahlil va tasvirlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, shaharlarning joylashuvi, iqlim o‘zgarishlari yoki tabiiy resurslar taqsimoti bo‘yicha xaritalar tuzish va tahlil qilish zarur.

Geografik ma'lumotlarni tahlil qilish: Statistika va geografik axborot tizimlaridan (GIS) foydalangan holda, o‘quvchilar mintaqalararo farqlarni aniqlash, ijtimoiy va tabiiy jarayonlarni o‘rganish hamda muammolarni hal etishda geografik bilimlardan foydalanishni o‘rganadilar.

Ekologik va ijtimoiy masalalarni hal qilish: Geografiya fanida ekologik muammolarni hal qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi choralar ko‘rish yoki resurslardan

Taraqqiyot spektri

samarali foydalanish kabi muhim amaliy ko‘nikmalar rivojlanadi. Bu ko‘nikmalar insoniyatning kelajagini ta'minlashda juda muhim ahamiyatga ega.

Kundalik hayotda geografik bilimlarni qo‘llash: Turizm, transport tizimlari yoki iqtisodiy faoliyatni tashkil etishda geografik bilim va ko‘nikmalar muhim rol o‘ynaydi.

Malaka — bu ko‘nikma va bilimlarning birlashmasidir. Ya'ni, malaka insonning ma'lum bir faoliyatni samarali va mukammal bajarish uchun zarur bo‘lgan yuqori darajadagi ko‘nikmalar to‘plamidir. Malaka, bilim va ko‘nikmalarni birlashtirib, yuqori darajada mustahkamlaydigan, murakkab vazifalarni bajarishda o‘quvchini muvaffaqiyatga eltadigan qobiliyatdir. Geografiya ta'limida malaka o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan bilimlarni turli amaliyotlarda, masalan, ijtimoiy yoki ekologik muammolarni hal qilishda qo‘llashda ko‘rinadi. Malakali geografiya mutaxassisi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

Mustahkam ilmiy asosga ega bo‘lishi, ya'ni geosiyosat, iqtisodiyot, ekologiya, demografiya kabi sohalarda chuqur bilimga ega bo‘lishi;

Geografik tadqiqotlarni o‘tkazish va natijalarni tahlil qilishda yuqori malakaga ega bo‘lishi;

Kompleks geografik muammolarni hal qilishda samarali va professional qarorlar qabul qila olish qobiliyati. Masalan, ekologik xavf-xatarlarni tahlil qilish, resurslarni boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ishlarda malakali geografiya mutaxassisi muhim rol o‘ynaydi. U o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini real sharoitda qo‘llab, ilmiy tadqiqotlar orqali muhim yechimlar topadi.

Geografiya ta'limi jarayonida bilim, ko‘nikma va malaka bir-birini to‘ldiradi va talabaning to‘liq rivojlanishiga yordam beradi. O‘quvchi dastlab geografik bilimlarni o‘rganadi (masalan, geografik joylashuv, tabiiy resurslar), so‘ngra, ushbu bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantiradi (xaritalar tuzish, tahlil qilish, geografik axborot tizimlaridan foydalanish), nihoyat, malaka bosqichiga o‘tadi, ya'ni o‘rganilgan bilimlar va ko‘nikmalarni murakkab vazifalarni hal qilishda qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Taraqqiyot spektri

Geografiyaning metodologiyasi, ilmiy asoslari va tahlil usullari bilimning turli shakllarini shakllantirish jarayonida katta ahamiyatga ega. Geografiya fanida nazariya, qonuniyat, tasavvur, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish nafaqat geografik bilimlarning rivojlanishiga, balki jamiyatning ekologik va iqtisodiy muammolarini hal qilishga ham xizmat qiladi.

Nazariya — bu biron bir hodisani tushunishga, izohlashga va bashorat qilishga yordam beradigan ilmiy asoslangan fikrlar tizimidir. Nazariya, o‘z navbatida, barcha ilmiy tadqiqotlarning poydevori bo‘lib, yangi bilimlarni yaratish va ulardan amaliyotda foydalanishni ta'minlaydi. Geografiya fanida nazariy bilimlar geografik hodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga, tabiat va jamiyatning o‘zgaruvchanliklarini tushunishga yordam beradi. Masalan, iqlim o‘zgarishi nazariyasi iqlimning inson faoliyati va tabiatdagi o‘zgarishlarga ta’sirini o‘rganadi, bu esa ekologik va iqtisodiy jarayonlarning prognozini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Nazariya orqali geografik hodisalarni ilmiy nuqtai nazardan tushunib, ular asosida samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Masalan, urbanizatsiya nazariyasi shaharlarning rivojlanishini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlarini o‘rganadi.

Geografiyada nazariyalar yangi ilmiy izlanishlar va kashfiyotlarga yo‘l ochadi, geografik bilimlarni chuqurlashtiradi va amaliyotda qo‘llaniladigan yangi usullarni ishlab chiqadi.

Nazariy bilimlarni shakllantirish bosqichlari:

Kuzatish va tajriba — ilk bosqichda geografik hodisalar va jarayonlar haqida boshlang‘ich ma’lumotlar yig‘iladi, atrof-muhitini kuzatadi, mavjud hodisalarni diqqat bilan o‘rganadi va ularni umumlashtiradi. Masalan, iqlimshunoslar tabiiy iqlim sharoitlarini o‘rganadilar.

Gipoteza shakllantirish — kuzatishlar asosida imkoniyatlarni nazariy jihatdan izohlash uchun taxminlar yoki gipotezalar shakllantiriladi. Misol uchun, iqlimning o‘zgarishi va inson faoliyatining ta’sirini tahlil qilish gipotezasi yaratiladi.

Taraqqiyot spektri

Eksperiment va tasdiqlash — gipotezalar sinovdan o‘tkazilib, ularning haqiqiyligi tasdiqlanadi yoki rad etiladi. Masalan, iqlimshunoslar meteorologik o‘lchovlar asosida o‘z g‘oyalarini sinovdan o‘tkazadilar.

Nazariyani ishlab chiqish — ilmiy natijalar asosida yangi nazariyalar shakllantiriladi.

Qonuniyatlar — bu tabiat yoki jamiyatdagi doimiy ravishda takrorlanib turadigan, bir hodisa boshqasiga ta’sir etadigan yoki o‘zaro bog‘langan qonuniy aloqalarni ifodalovchi umumiy qonunlar to‘plamidir. Qonuniyatlar odamlarning atrof-muhitdagi jarayonlarni anglashiga yordam beradi va dunyoqarashlarini kengaytiradi. Geografiyada qonuniyatlar orqali turli tabiiy jarayonlar, masalan, iqlim, suv resurslari, tabiiy ofatlar va ularning inson faoliyatiga ta’siri aniqlanadi. Masalan, meteorologik qonuniyatlar atmosferadagi harorat, namlik va shamol oqimlari o‘rtasidagi aloqalarni ifodalaydi.

Qonuniyatlarni shakllantirish bosqichlari:

Kuzatish — geografik jarayonlar va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni kuzatish. Masalan, iqlimshunoslar atmosferadagi harorat va namlikning o‘zgarishini kuzatishadi.

Tahlil qilish — kuzatilgan hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va bog‘liqliklar tahlil qilinadi.

Qonuniyatlarni shakllantirish — olingan ma’lumotlar asosida yangi qonuniyatlar yoki qoidalar ishlab chiqiladi va ularni umumlashtirishga harakat qilinadi.

Tekshirish va tasdiqlash — ishlab chiqilgan qonuniyatlar amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi va ularning samaradorligi tasdiqlanadi yoki rad etiladi.

Tasavvur — bu insonning mavjud bilimlari va tajribasi asosida yangi, hali yuzaga kelmagan yoki mavjud bo‘lsa ham kuzatilmaydigan hodisalarni xayolida yaratish qobiliyatidir. Geografiyada tasavvur jarayoni yangi ilmiy izlanishlar va konseptlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Geografiyada tasavvur yaratish orqali yangi g‘oyalar va ilmiy kashfiyotlar yuzaga keladi. Masalan, iqlim o‘zgarishining tabiatga ta’siri va uning kelajakdagi natijalari bo‘yicha tasavvurlar ishlab chiqiladi.

Taraqqiyot spektri

Tasavvurni shakllantirish bosqichlari:

O‘rganish va tahlil qilish — mavjud bilimlarni o‘rganish va yangi tasavvurlarni yaratish uchun mavjud materiallarni tahlil qilinadi.

Ijodiy fikrlash — olingan bilimlar asosida yangi tasavvurlar yaratiladi va mavjud imkoniyatlar kengaytiriladi.

Amaliyotda sinash — tasavvur qilingan g‘oyalar yoki loyihalar amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi va ularga qanday natijalar olib kelishi aniqlanadi.

Ko‘nikma va malakalar insonning tabiat va jamiyatni o‘rganish, muammolarni hal qilishda va geografik tizimlarni boshqarishda samarali ishlash imkoniyatini yaratadi. Geografik bilimlarni amaliyotda qo‘llash uchun ko‘nikmalar va malakalar zarur. Masalan, geografik xaritalarni o‘qish, hududiy tahlil qilish, iqlim sharoitlarini prognoz qilish kabi ko‘nikmalar geografiya fanida muhim hisoblanadi. Ko‘nikmalar yordamida geografiyaning amaliy sohalarida, masalan, qishloq xo‘jaligi, resurslarni boshqarish, ekologik barqarorlikni ta’minlash kabi sohalarda samarali ish olib borish mumkin.

Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bosqichlari:

Mashq qilish — geografik jarayonlarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash uchun ko‘plab mashqlarni bajarish zarur.

Sinovdan o‘tkazish — yangi ko‘nikmalarni amaliyotda sinovdan o‘tkazish va ularni yaxshilash lozim.

Takomillashtirish — ko‘nikmalarni mukammallashtirish uchun doimiy ravishda yangi bilimlar va tajribalarni o‘rganib borish kerak.

Nazariya, qonuniyat, tasavvur, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish geografiya fanida ilmiy va amaliy bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir bosqich geografik jarayonlarni tushunish va ularni boshqarish uchun zarurdir. Ushbu bilim shakllarini shakllantirish geografiyaning asosiy yo‘nalishlarini chuqurlashtirishga yordam beradi va amaliyotda ekologik barqarorlik, ijtimoiy rivojlanish va iqtisodiy boshqaruvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Taraqqiyot spektri

Geografik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni bilim egallash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Mashqlarni to‘g‘ri va samarali bajarish o‘quvchilarni ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishiga imkon yaratadi. Geografiya fani o‘qituvchilari va metodistlar, o‘quvchilarning amaliy tayyorgarligini shakllantirishga katta e’tibor beradilar, chunki bu tayyorgarlikni shakllantirishda mashqlarning roli nihoyatda muhimdir.

Geografiya o‘qitishda ko‘nikmalar turli darajalarga ega va murakkablik darajasi o‘zgarib turadi. Masalan, ufq tomonlarini aniqlash oddiy ko‘nikma hisoblanadi, ammo topografik planni o‘qish va uni tuzish esa murakkab ko‘nikmalarga kiradi. Bu ko‘nikmalarni shakllantirishda mashqlar o‘quvchilarga muhim amaliy malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Mashqlar jarayonida ko‘nikmalar bir vaqtning o‘zida shakllanadi: ba’zi topshiriqlar ongli ravishda bajarilsa, boshqalari bevosita, lekin ong nazorati ostida amalga oshiriladi. Masalan, topografik planni o‘qish ko‘nikmasi mashqlar orqali yo‘nalishlarni aniqlash, masshtab yordamida masofalarni o‘lchash, topografik belgilarga e’tibor qaratish kabi amaliy harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Geografik ko‘nikmalarni shakllantirishda mashqlarni to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tashkil etish zarur. O‘quvchilarga geografik xaritalarni o‘qish, tabiatdagi ob-havoni kuzatish, statistik materiallar bilan ishlash kabi amaliy mashqlarni bajarish orqali, ular geografik qonuniyatlarni yaxshiroq tushunadilar. Misol uchun, ob-havo haroratini aniqlash yoki barometr yordamida ob-havoni o‘lchash ko‘nikmasi, mashqlar orqali murakkab malakaga aylanishi mumkin. Shuningdek, geografik xaritani o‘qish mashqlari orqali o‘quvchilar hududlar o‘rtasidagi fazoviy bog‘liqlikni, obyektlar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashni o‘rganadilar.

Mashqlarning samarali o‘tishi uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga individual yondashishi kerak. Ular uchun maxsus topshiriqlarni ishlab chiqish va ko‘nikmalarni amaliy tarzda shakllantirish juda muhimdir. Mashqlarni bajarishda o‘quvchilar turli ko‘nikmalarni egallab, ularning har biri bir-biri bilan chambarchas bog‘langan holda amalga oshiriladi. Har bir ko‘nikmaning shakllanishi va rivojlanishi turli o‘quv jihozlari

Taraqqiyot spektri

va vositalarini, shuningdek, o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

O‘quv jarayonida o‘qituvchi asosiy rahbar sifatida ko‘nikma shakllantirish jarayonini tahlil qilib, zarur bilimlarni amalda qo‘llashga yordam beradi. O‘quvchilar uchun nazariy materialni amalda qo‘llash vaqti va o‘rni muhim ahamiyatga ega. Agar mashqlar mavzu o‘rganilayotgan paytda bajarilsa, bu ko‘nikmalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va sifatli bilimlarni egallashni ta’minlaydi.

Geografik ko‘nikmalarni shakllantirishda mashqlarning o‘rni katta, chunki ular o‘quvchilarga amaliy bilimlarni egallashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Har bir kurs darsida shakllantirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar aniq belgilanishi va ular amaliy ahamiyatiga qarab o‘quvchilarga yetkazilishi zarur. Mashqlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini yanada mustahkamlab, amaliy hayotda qo‘llashga tayyorlanadilar.

Ko‘nikmalar va malakalar, ayniqsa geografiya kabi fanlarni o‘qitishda, ta’lim jarayonining asosiy elementlaridan biridir. Tabiiy va iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini samarali amalga oshirishga, ularning amaliy hayotga tayyorlanishiga katta yordam beradi. Bu ko‘nikmalarni shakllantirish nafaqat tabiiy fanlarida, balki ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy ko‘nikmalar, o‘quvchilarga tabiatni o‘rganishda zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni egallashda yordam beradi. Bular tabiatdagi hodisalarni kuzatish, geologik jarayonlarni o‘rganish, ekologik muammolarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Tabiiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida o‘quvchilar tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlarni kuzatish va ularni tahlil qilishni o‘rganadilar. Masalan, ob-havoni kuzatish, o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘rganish, to‘g‘ri topografik xaritalarni o‘qish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchilarning atrof-muhitni to‘g‘ri tushunishlariga yordam beradi. Tabiiy ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘quvchilarga kuzatish, o‘lchash va tahlil qilish jarayonlarini o‘rgatish zarur. Bu ko‘nikmalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribalarni ham o‘z ichiga oladi.

Taraqqiyot spektri

Iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirish, o‘quvchilarga iqtisodiy jarayonlarni tushunish, iqtisodiy resurslarni boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga yechim topishda yordam beradi. Iqtisodiy ko‘nikmalar, masalan, statistik ma'lumotlar bilan ishlash, iqtisodiy xaritalarni o‘qish, iqtisodiy tahlilni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Geografiya fanida iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirishning alohida o‘rni bor. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarga hududlararo iqtisodiy aloqalarni tushunishga yordam beradi, resurslarni taqsimlash va ularni boshqarish imkoniyatlarini o‘rgatadi. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda mashqlar va turli xil iqtisodiy simulyatsiyalar o‘quvchilarning qobiliyatlarini oshiradi. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish, masalan, iqtisodiy vaziyatni o‘rganish va uning tabiat bilan aloqalarini baholash, o‘quvchilarga amaliy bilimlarni beradi.

Tabiiy va iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirishda metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Darslarda ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘quvchilarga amaliy topshiriqlar berish, turli simulyatsiyalar va tajribalar o‘tkazish orqali, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Tabiiy va iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirishda quyidagi metodik usullarni qo‘llash samarali natijalar beradi.

Kuzatish va tahlil: O‘quvchilarga tabiiy hodisalarni va iqtisodiy jarayonlarni kuzatish, ularni tahlil qilish va o‘zlashtirishni o‘rgatish.

Amaliy mashqlar: O‘quvchilarga tabiiy va iqtisodiy xaritalar bilan ishlash, geografik va iqtisodiy statistik ma’lumotlarni tahlil qilish uchun topshiriqlar berish.

Model yaratish: Iqtisodiy jarayonlarni model sifatida tasvirlash, o‘quvchilarga resurslarni boshqarish va iqtisodiy siyosatni baholashni o‘rgatish.

Ijtimoiy tahlil: Tabiiy va iqtisodiy hodisalarni ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilish, ularni o‘quvchilarga tushuntirish va turli muammolarni hal qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Tabiiy va iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quvchilarning nafaqat geografiya, balki kengroq iqtisodiy va ekologik bilimlarga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Taraqqiyot spektri

Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish orqali o‘quvchilar o‘zlarining amaliy hayotga tayyorlanishlarini yaxshilashadi va turli xil muammolarni hal qilish uchun zarur bilimlarni egallaydilar. Natijada, tabiiy va iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirish nafaqat bilimlarning sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarning dunyoqarashlarini ham kengaytiradi.

Geografiya fanini o‘qitishda xaritalar juda muhim vositalardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning turli tipdagi ko‘nikmalarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Xaritalar nafaqat geografik obyektlarni va hodisalarni aks ettirish uchun, balki o‘quvchilarda analitik fikrlash, muammolarni hal qilish va mavhum tushunchalarni aniq tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Geografiyada xaritalar o‘quvchilarga hududlar, tabiiy resurslar, iqtisodiy faoliyatlar va ekologik muammolar haqida aniq tasavvur berishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, xaritalar faqat geografik obyektlarni o‘qishga yordam bermaydi, balki o‘quvchilarda keng ko‘lamli ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Xaritalar yordamida shakllantiriladigan ko‘nikmalarni quyidagicha tasniflash mumkin.

- Geografiya fanida xaritalar o‘qish, hududlarning tabiiy va iqtisodiy holatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilar xaritalarda ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida hududning tabiiy geografik xususiyatlari (masalan, iqlim, o‘simliklar dunyosi) va iqtisodiy holatini (masalan, sanoat tarmoqlari, transport yo‘llari) o‘rganadilar. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantiradi va ularni amaliyotda qo‘llashga tayyorlaydi.

- Xaritalar ijtimoiy va iqtisodiy hodisalarni tahlil qilishda ham yordam beradi. Misol uchun, iqtisodiy xaritalar yordamida o‘quvchilar o‘zlarining iqtisodiy savodxonliklarini oshirishlari mumkin. Ular iqtisodiy resurslarni qanday taqsimlash, sanoat va qishloq xo‘jaligini qaysi hududlarda rivojlantirish mumkinligini tushunishadi. Shuningdek, xaritalar o‘quvchilarga hududlararo ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni ko‘rsatadi.

- Xaritalar o‘quvchilarga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Masalan, topografik xaritalarda ob’ektlarni aniqlash, xaritada masshtabdan foydalanib

Taraqqiyot spektri

masofalarni o‘lchash, geografik koordinatalarni topish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bularning barchasi o‘quvchilarda fazoviy tasavvur va analitik fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, xarita yordamida turli tabiiy resurslar va iqtisodiy tizimlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Xaritalarning ko‘nikmalarni shakllantirishdagi roli ularning samarali qo‘llanilishiga bog‘liq. Xarita o‘qish va tahlil qilish o‘quvchilarga geografik obyektlar va hodisalarni tasavvur qilish imkonini beradi. Bu jarayon ularning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi. Xaritalar yordamida o‘quvchilar o‘zlariga kerakli ma’lumotni izlash, tahlil qilish va taqqoslashni o‘rganadilar. Shuningdek, xarita o‘quvchilarga murakkab ma’lumotlarni tartibga solish va strukturaviy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanidan talabalarning mustaqil ta’limini baholash mezonlari // TDPU Ilmiy axborotlari. Ilmiy-nazariy jurnal. 2025 yil, 3-son. 74-87 b.
2. Abdimurotov O.U. Uzluksiz ta’lim tizimida geografiya fanidan mustaqil ta’limni tashkil etishda foydalaniladigan axborot manbalari va o‘quv vositalari // “Uzluksiz ta’lim” ilmiy-uslubiy jurnal. 2025. № 2. 97-101 b.
3. Abdimurotov O.U. Bo‘lajak geografiya o‘qituvchilariga mustaqil ta’limni tashkil etishda loyiha ishlarining ahamiyati // “Tabiiy fanlar: yangi yondashuvlar va dolzarb tadqiqotlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. Toshkent. 2024. 18-19-oktyabr. 285-290-b.
4. Abdimurotov O.U. Geografiya o‘qitish metodikasi. Darslik, Toshkent “Ilm nurli kitob” nashriyoti, 2025. -550 b.
5. Abdimurotov O.U. Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma (oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun). Toshkent “Ilm nurli kitob” nashriyoti, 2024. -674 b.

Taraqqiyot spektri